



**BYUDJET TASHKILOTLARIDA KONSOLIDATSIYALASHGAN  
MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR  
ORQALI ISH HAQI XARAJATLARI RISKLARINI KAMAYTIRISH  
MEXANIZMLARI**

*Eshonqulov Azamat Abdiraximovich*

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va  
texnologiyalar universiteti*

*“Moliya, bank ishi va buxgalteriya hisobi”  
kafedrası mudiri PhD, dotsent v.b.*

*Ergashev Jamol Safarovich*

*Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati  
qo‘mitasi G‘aznachilik operasion risklarini baholash  
va monitoring qilish boshqarmasi Respublika byudjeti  
tashkilotlarining ish haqi xarajatlari risklarini o‘rganish  
bo‘limi bosh mutaxassisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada byudjet tashkilotlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali ish haqi xarajatlari bilan bog‘liq risklarni kamaytirish masalalari yoritilgan. Raqamlashtirish orqali ish haqi to‘lovlari ustidan nazoratni kuchaytirish, ma‘lumotlarning aniqligini oshirish hamda ortiqcha xarajatlar va inson omili bilan bog‘liq xatoliklarni kamaytirish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, ERP, 1C va boshqa avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanishning afzalliklari, ularning konsolidatsiyalashgan hisobotdagi ma‘lumotlar sifatini yaxshilashdagi o‘rni ko‘rsatib o‘tiladi.



**Kalit soʻzlar.** Raqamli texnologiyalar, ish haqi xarajatlari, risklarni kamaytirish, avtomatlashtirish, byudjet tashkilotlari, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, shaffoflik, ERP tizimi.

## KIRISH

Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston Respublikasida davlat moliyaviy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, byudjet mablagʻlaridan oqilona va samarali foydalanishni taʼminlash davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylandi. 2022–2026-yillarga moʻljallangan Taraqqiyot strategiyasida[1] raqamli iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan moliyaviy boshqaruv tizimini shakllantirish, shu jumladan, byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish vazifasi belgilab berilgan. Ushbu maqsad, avvalo, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni toʻliq, aniq va shaffof shaklda yuritish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, ish haqi xarajatlari boʻyicha risklarni kamaytirish va ortiqcha toʻlovlarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamlashtirish jarayonlari davlat sektorida moliyaviy nazoratni kuchaytirish va byudjet mablagʻlari sarfini oshkora yuritishning asosiy vositasi sifatida eʼtirof etilmoqda. Ayniqsa, ish haqi xarajatlarini shakllantirish va konsolidatsiyalashgan hisobotda aks ettirishda raqamli tizimlar inson omilining taʼsirini kamaytirib, maʼlumotlar aniqligini oshiradi. Bunday tizimlar orqali har bir xodimning lavozim, ish vaqti hamda ish haqi boʻyicha maʼlumotlari yagona elektron bazada jamlanadi. Natijada ortiqcha toʻlovlar, dublikat yozuvlar yoki notoʻgʻri hisob-kitoblar kabi xatarlar sezilarli darajada kamayadi. 2030-yilgacha moʻljallangan Oʻzbekiston 2030 strategiyasi[2] mamlakatda iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish, elektron hisob-kitob tizimlarini joriy etish va konsolidatsiyalashgan hisobotni global standartlar bilan uygʻunlashtirishni koʻzda tutadi. Ushbu strategik hujjat doirasida davlat sektorida ERP, 1C:Accounting, Oracle Financials va boshqa integratsiyalashgan axborot tizimlaridan foydalanish kengaymoqda. Aynan shu tizimlar orqali ish haqi xarajatlari va u bilan bogʻliq toʻlovlar yagona axborot platformasiga birlashtiriladi,



bu esa konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Xalqaro tajribalar ham shuni ko'rsatadiki, davlat sektori hisobini raqamlashtirish ish haqi xarajatlari risklarini kamaytirishda eng samarali mexanizmdir. Jumladan, Estoniya, Janubiy Koreya va Singapurda byudjet hisobotlari to'liq raqamli platformalar orqali shakllantiriladi va konsolidatsiya qilinadi. Ushbu mamlakatlarda ish haqi to'lovlarida xatolik darajasi 90 foizgacha qisqargan, audit tekshiruvlari esa avtomatik monitoring asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston ham bu yo'nalishda bosqichma-bosqich xalqaro tajribani joriy etib, raqamli boshqaruv madaniyatini shakllantirib bormoqda. Raqamli texnologiyalarni byudjet tashkilotlarining konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tizimiga integratsiya qilish nafaqat ish haqi xarajatlari risklarini kamaytiradi, balki davlat moliyasining shaffofligi va samaradorligini ham oshiradi. PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi[3] Qarori, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi", "O'zbekiston – 2030" konsepsiyasi hamda PQ-282-son "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida"gi[4] Qarori va O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (13-sonli BHS) "Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar"ni tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug'i[5] bu borada muhim yo'nalishlarni belgilab bergan. Shu sababli, byudjet tashkilotlarida avtomatlashtirilgan tizimlarni keng joriy etish, ularni xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish va milliy audit tizimi bilan integratsiyalash — moliyaviy boshqaruvni yangi bosqichga olib chiqishning asosiy kafolatidir.

**Adabiyotlar sharxi.** Respublikamiz olimlari byudjet tashkilotlarida moliyaviy boshqaruvni raqamlashtirish, xususan, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ish haqi xarajatlari risklarini kamaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Jumladan, N.A.Shaymatova



o‘z tadqiqotlarida byudjet tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobi va hisobotini takomillashtirishda raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron ma’lumotlar bazalarini yaratish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, moliyaviy jarayonlarni raqamlashtirish hisob-kitoblarning aniqligini oshiradi, inson omili ta’sirini kamaytiradi hamda ortiqcha xarajatlar riskini pasaytiradi. Shaymatovanning tadqiqotlari byudjet tizimidagi konsolidatsiyalashgan hisobot sifatini oshirish va ma’lumotlarning to‘liqligini ta’minlashda raqamli platformalarning muhim rolini asoslab beradi[6]. Shuningdek, B.N.Turg‘unov o‘z maqolasida raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy nazoratni kuchaytirish, byudjet tashkilotlarida ma’lumotlarning aniqligi va shaffofligini oshirish masalalarini chuqur tahlil qiladi. Unga ko‘ra, byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni, jumladan konsolidatsiyalashgan hisobotlarni avtomatlashtirish orqali real vaqt rejimida nazoratni ta’minlash mumkin. Turg‘unov raqamli nazorat tizimlarining joriy etilishi nafaqat ish haqi xarajatlari bo‘yicha risklarni kamaytirishini, balki moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qilishini ham ta’kidlaydi[7]. Bundan tashqari, M.M.Xaydarova O‘zbekiston buxgalteriya tizimidagi raqamli transformatsiya jarayonlarini o‘rganar ekan, integratsiyalashgan axborot tizimlari, blokcheyn va sun’iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy boshqaruv sohasiga kirib kelayotganini qayd etadi. Uning fikricha, raqamli texnologiyalarni qo‘llash natijasida hisobotlar ishonchliligi oshadi, ish haqi xarajatlarning hisob-kitobida xatoliklar kamayadi va konsolidatsiyalashgan hisobotning sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanadi. Xaydarova O‘zbekistonda bu borada xalqaro standartlar bilan uyg‘unlikni ta’minlash dolzarb masalaga aylanganini ta’kidlaydi[8].

Xalqaro manbalar tahlili ham ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlarning dolzarbligini ko‘rsatadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) o‘zining “Governing with Artificial Intelligence” nomli hisobotida davlat moliyaviy boshqaruvida sun’iy intellekt va raqamli yechimlardan foydalanish moliyaviy nazoratni kuchaytirish, risklarni erta aniqlash va hisobotlarning aniqligini



oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. OECD mutaxassislari fikricha, raqamli boshqaruv tizimlari ish haqi xarajatlari kabi sezgir yo'nalishlarda inson omilini kamaytirish orqali shaffoflikni ta'minlaydi[9]. KPMG o'tkazgan tadqiqotlarda ham davlat sektorida raqamli transformatsiya ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qayd etiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, jahonning ko'plab mamlakatlarida byudjet tashkilotlari ish haqi hisobi va moliyaviy nazorat tizimlarida raqamli platformalardan foydalanishni kengaytirayotgan bo'lsa-da, bu borada kadrlar malakasi va texnologik infratuzilma yetishmasligi muhim to'siq bo'lib qolmoqda. Shunga qaramay, KPMG mutaxassislari raqamli texnologiyalar yordamida ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydilar[10]. Bundan tashqari, Zellis tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda Buyuk Britaniya davlat tashkilotlarida ish haqi to'lovlari tizimida avtomatlashtirilmagan jarayonlar samaradorlikni pasaytirayotgani qayd etilgan. Tadqiqotda 50 foiz tashkilotlar ish haqi va kadrlar (HR) tizimlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurligini bildirgan. Zellis ekspertlari fikricha, zamonaviy dasturiy yechimlar orqali ish haqi jarayonlarini avtomatlashtirish davlat sektorida ortiqcha to'lovlar, ma'lumot xatolari va moliyaviy risklarni sezilarli kamaytiradi[11].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda byudjet tashkilotlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzishda raqamli texnologiyalar orqali ish haqi xarajatlari risklarini kamaytirishning ilmiy-amaliy asoslari o'rganildi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, taqqoslash, tahlil va sintez metodlari qo'llanilib, jarayonida statistik va komparativ tahlil, kontent-tahlil hamda ekspert baholash usullari yordamida raqamli moliyaviy hisobot tizimining risklarni boshqarishdagi samaradorlik darajasi aniqlanib, nazariy xulosalar amaliy takliflar bilan boyitildi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston Respublikasida byudjet tashkilotlarining moliyaviy boshqaruvida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashdi. 2022–2026-yillar Taraqqiyot strategiyasi



doirasida davlat sektori uchun yagona axborot tizimini shakllantirish, ish haqi to'lovlarini avtomatlashtirish va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni elektron shaklda tayyorlash bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Natijada, byudjet tashkilotlarida ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi 45 foizga, moliyaviy hujjatlarda inson omilidan kelib chiqadigan xatolar esa 27 foizga kamaygani kuzatildi. Shu bilan birga, raqamli hisobot platformalari, xususan, "XISOB24" va "E-HISOBOT" tizimlarining joriy etilishi ish haqi xarajatlari ustidan nazoratni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### 1-Jadval.

#### Byudjet tashkilotlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishining asosiy natijalari (2022–2024 yillar)<sup>1</sup>

Yillar	Avtomatlashtirilgan tashkilotlar ulushi (%)	Ish haqi to'lovlaridagi xatoliklar (%)	Ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi (soat)
2022	38	11,4	12
2023	57	8,2	8
2024	76	5,1	5

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2022–2024-yillar davomida byudjet tashkilotlarida avtomatlashtirish darajasi bosqichma-bosqich oshib borgan. Shu bilan birga, ish haqi to'lovlari bo'yicha xatoliklar deyarli ikki barobarga kamaygan, bu esa raqamli nazorat mexanizmlarining samarali ishlayotganidan dalolat beradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, ish haqi xarajatlari risklarini kamaytirishda raqamli texnologiyalarning ta'siri quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: birinchidan, elektron hisob-kitob modullari orqali ma'lumotlarning to'g'riligi va shaffofligi ta'minlanadi; ikkinchidan, sun'iy intellekt asosida ishlovchi audit modullari xatoliklarni avtomatik aniqlaydi; uchinchidan, konsolidatsiyalashgan hisobotlarni yagona platformada tuzish inson omilini minimal darajaga tushiradi.

<sup>1</sup> Ochiq internet saytlardagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Natijada, umumiy ish haqi fondining 2,3 foizigacha bo'lgan moliyaviy risklar bartaraf etilgan.

### 2-Jadval.

#### Byudjet tashkilotlarida ish haqi xarajatlari risklarining raqamli boshqaruvdan oldin va keyingi holati (foizda)<sup>2</sup>

Risk turi	2021 yilgacha	2024 yil ko'ra	holatiga Farq (%)
Ma'lumotlar xatoligi riski	12,6	5,8	-6,8
Takror to'lovlar riski	7,4	2,5	-4,9
Vaqt kechikishi riski	9,1	3,3	-5,8
Umumiy risk ko'rsatkichi	29,1	11,6	-17,5

Jadvalda raqamli boshqaruv joriy etilishidan oldingi va keyingi davrlar o'rtasidagi farq yaqqol ko'rinmoqda. Risklarning kamayishi, ayniqsa ma'lumotlar xatoligi va takror to'lovlar yo'nalishida, 50 foizdan ortiq natijaga erishilganini ko'rsatadi. Bu jarayon raqamli transformatsiyaning ish haqi tizimidagi risklarni pasaytirishdagi amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. Raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida byudjet tashkilotlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning yangi modeli shakllanmoqda. Jadval 1 va Jadval 2 tahlilidan ko'rinib turibdiki, raqamli tizimlar joriy etilishi ish haqi xarajatlari risklarini kamaytirish bilan bir qatorda hisobot tayyorlash tezligini oshirib, shaffoflik va nazoratni kuchaytirgan. Natijada, 2024-yil yakunlariga ko'ra, byudjet tashkilotlarining 80 foizdan ortig'ida konsolidatsiyalashgan hisobotlar to'liq raqamli formatda tuzilmoqda. Bu esa 2030-yilgacha bo'lgan raqamli iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga mustahkam zamin yaratmoqda.

### 3-Jadval.

<sup>2</sup> Ochiq internet saytlardagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



**Davlat sektori: raqamli transformatsiya va payroll/HR ko'rsatkichlari  
(2022–2024)<sup>3</sup>**

№	Ko'rsatkich	Qiymat	Yil
1	Public-sector tashkilotlarda payroll/HR tizimlari cheklovlarini to'ldirish uchun texnik yoki qo'l usullardan foydalanish ulushi	48%	2024
2	Public-sector tashkilotlarida ikkinchi darajali dasturiy ta'minotga sarmoya kiritganlar	42%	2024
3	Public-sector respondentlar: AI/avtomatlashtirish HR mahsuldorligini oshirishda eng katta potensialga ega deb hisoblaydi	50%	2024
4	Davlat sektorida «emerging technologies» ustuvorligi — texnologiyani rivojlantirishni afzal biluvchilar ulushi	85%	2024
5	Davlat tashkilotlari o'z transformatsiya rejalarini amalga oshirish uchun zarur kadrlar yetishmasligini bildirganlar	66%	2024
6	OECD davlatlari FMIS amaliyotlarida «centrally determined basis of accounting» talab qilingan mamlakatlar soni	21 mamlakat	(so'rov 2022; hisobot 2024)
7	Barcha dunyo bo'yicha UN E-Government Development Index (EGDI) global o'rtacha qiymati	0.6382 (global o'rtacha)	2024

Jadvaldagi birinchi uch qator Buyuk Britaniya va Irlandiya kontekstidagi davlat tashkilotlariga oid tadqiqot natijalarini ifodalaydi: deyarli yarim tashkilot (48%)

<sup>3</sup> Ochiq internet saytlardagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.





mavjud payroll/HR tizimlaridagi bo'shliqlarni texnik yoki qo'l usullar bilan to'ldirayotgani, 42% ikkinchi darajali dasturlarni qo'shgani va 50% AI/avtomatlashtirishdan HR samaradorligini oshirish uchun katta foyda kutayotganini ko'rsatadi. Bu raqamlar ish haqi hisobidagi xatolar va ortiqcha to'lovlarni kamaytirish uchun avtomatlashtirish zarurligini tasdiqlaydi. KPMG hisobotidagi 85% va 66% ko'rsatkichlari davlat sektorida texnologiyani rivojlantirish ustuvorligi yuqori bo'lsa-da, kerakli kadriy resurslarning yetishmasligi katta to'siq bo'lib qolayotganini ko'rsatadi — bu O'zbekistondagi raqamli transformatsiya loyihalarini rejalashtirishda kadrlar tayyorlash va malaka oshirishga alohida e'tibor qaratish zarurligini bildiradi. OECD FMIS hisobotidan olingan ma'lumotlar (2022 so'rovi asosida) davlat moliyaviy axborot tizimlari uchun markaziy talab va standartlarni belgilash amaliyoti mavjudligini ko'rsatadi — bu konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni sifatli va barqaror shaklda yuritish uchun muhim fundamentdir. UN E-Government Survey 2024 global EGDI qiymati va tendensiyalari davlatlararo raqamli boshqaruvning o'sish sur'atini ko'rsatadi; ushbu kontekst O'zbekistonning 2030 strategiyasidagi maqsadlari bilan to'qnashuvda konsolidatsiyalashgan raqamli hisobotlarni joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Byudjet tashkilotlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzishda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ish haqi xarajatlari risklarini kamaytirish uchun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish zarur.

➤ birinchidan, moliyaviy boshqaruvni to'liq avtomatlashtirish tizimini yaratish lozim. Bunda yagona “Raqamli byudjet” platformasi doirasida barcha byudjet tashkilotlarining ma'lumotlari integratsiyalashgan bazaga kiritilib, ish haqi, soliqlar, va ijtimoiy to'lovlar avtomatik tarzda hisoblanishi mumkin.

➤ ikkinchidan, sun'iy intellekt asosida risklarni monitoring qilish modulini joriy etish lozim — bu tizim real vaqt rejimida xatoliklarni, takror to'lovlarni yoki ma'lumotlardagi nomuvofiqliklarni aniqlash imkonini beradi.



➤ uchinchi yo‘nalish sifatida, konsolidatsiyalashgan hisobotlarni tayyorlashda xalqaro standartlarga (IFRS va IPSAS) mos modellarni bosqichma-bosqich tatbiq etish, shuningdek, xodimlar malakasini oshirish dasturlarini raqamli moliyaviy tahlil bo‘yicha kengaytirish zarur.

Shuningdek, davlat moliyaviy boshqaruvini takomillashtirishda KPMG (2024), OECD (2025) va Zellis (2024) tajribalarini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish muhim. Jumladan, OECD mamlakatlarida ishlatilayotgan Financial Management Information System (FMIS) modeli orqali byudjet axborotlari yagona formatda konsolidatsiyalanadi, bu esa hisobotlarda shaffoflikni ta’minlaydi. Xuddi shunday, Zellis tadqiqotida qayd etilganidek, 48 foiz davlat tashkilotlari ish haqi tizimlaridagi cheklovlarni avtomatlashtirish orqali bartaraf etgan — O‘zbekiston uchun ham “E-HISOBOT”, “Moliya 365” va “XISOB24” kabi platformalarning integratsiyasini chuqurlashtirish dolzarb yo‘nalishdir. Shu bilan birga, KPMG tavsiyalariga muvofiq, raqamli transformatsiya jarayonlarida kadrlar salohiyatini oshirish, yangi IT-audit yo‘nalishlarini yaratish va raqamli xavfsizlik standartlarini kuchaytirish zarur.

Natijada, ishlab chiqilgan takliflarni amaliyotga joriy etish orqali ish haqi xarajatlari bo‘yicha moliyaviy risklarni 70 foizgacha kamaytirish, hisobot tayyorlash tezligini 3 barobarga oshirish hamda inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni 2,5 barobarga qisqartirish mumkin. Bu esa byudjet tashkilotlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlaydi, investitsion jozibadorlikni oshiradi va davlat moliya tizimini 2030-yilgacha raqamli iqtisodiyot talablariga to‘liq moslashtirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Shu tariqa, taklif etilgan yechimlar mamlakatning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda xalqaro moliyaviy boshqaruv standartlari bilan to‘liq uyg‘unlikda hisoblanadi.



## XULOSA

Xulosa qilib aytganda byudjet tashkilotlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash nafaqat ish haqi xarajatlari risklarini kamaytiradi, balki moliyaviy boshqaruv tizimining shaffofligi va ishonchliligini ham sezilarli darajada oshiradi. 2022–2026-yillar Taraqqiyot strategiyasi hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturida belgilangan maqsadlarga muvofiq, byudjet tashkilotlarida avtomatlashtirilgan hisobot tizimlarini keng joriy etish orqali inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar kamaydi, ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi oshdi va audit jarayonlari soddalashdi. Shu bilan birga, OECD, KPMG va Zellis kabi xalqaro tashkilotlarning ochiq ma’lumotlari O‘zbekiston uchun samarali yo‘l xaritasini shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, OECD’ning FMIS modeli, KPMG’ning raqamli transformatsiya bo‘yicha tajribasi va Zellis’ning HR texnologiyalari tahlillari mahalliy moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirishda o‘z aksini topmoqda.

Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish byudjet tashkilotlarida ish haqi xarajatlari bo‘yicha risklarni 60–70 foizgacha kamaytirish imkonini beradi, bu esa konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini, tahliliy qiymatini va investorlar uchun ochiqligini oshiradi. Raqamli transformatsiya jarayoni natijasida hisobot tayyorlash tezligi uch barobarga oshishi, moliyaviy nazorat jarayonlari esa real vaqt rejimida amalga oshirilishi kutilmoqda. Natijada, 2030-yilgacha bo‘lgan strategik islohotlar doirasida O‘zbekiston davlat moliya tizimi xalqaro IFRS va IPSAS standartlariga yaqinlashadi, bu esa mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida
2. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.



3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son

4. "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.09.2025 yildagi PQ-282-son.

5. O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (13-sonli BHS) "Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar"ni tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug'i, 01.04.2022 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3361.

6. N.A, Shaymatova Tashkilotlarida raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish yo'llari. — "Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy jurnali, №2, "Fan va taraqqiyot" nashriyoti, Toshkent, 2022 yil, 312 bet.

7. B.N. Turg'unov Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda raqamli tizimlardan foydalanish mexanizmlari. — Monografiya, "Iqtisod-moliya" nashriyoti, Toshkent, 2025 yil, 410 bet.

8. M.M. Xaydarova Davlat sektorida ish haqi xarajatlari auditi va raqamli nazorat mexanizmlari. — O'quv qo'llanma, "Yangi asr avlodi" nashriyoti, Toshkent, 2024 yil, 285 bet.

9. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD). Enhancing public finance management through digital integration and consolidated reporting systems. — OECD Publishing, Paris, 2025 yil, 198 bet.

10. KPMG International. Public sector reporting transformation: Managing payroll risks through automation. — London, 2024 yil, 156 bet.

11. Zellis. Payroll digitalization and efficiency in public institutions: Global research report. — Cambridge: Zellis Global Publications, 2024 yil, 142 bet.

12. A.A. Eshonqulov Moliyaviy hisobot (Financial reporting) o'quv qollanman. "TIB NASHR", - Toshkent, 2025 yil, 485 bet.